



EPISTOLYAR MEROSDA DIDAKTIK MASALALAR VA ULARNING BADIY IFODASI (Mukarrama Murodova maktublari misolida)

Dilshunos Inomova,
Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil

Jurnal soni: 16-B

Maqola raqami: 54

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1510>

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА/ KEYWORDS**

epistolyar janr, epistolyar meros, badiiy
ifoda, didaktik masalalar, ma'naviy
qadriyatlar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy adabiyotda maktub adabiy yo'nalishi, uning kelib chiqishi, adabiy jarayondagi o'rni va uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek tanikli shoira Mukarrama Murodova epistolyar merosida didaktik masalalar va ularning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Epistolyar janr adabiy jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va u Mukarrama Murodova ijodiy faoliyatida o'ziga xos tarzda o'rin egallagan. Shoira maktublar vositasida farzandlarini, yosh kitobxonlarini vatanparvarlikka, ilm egallashga, vaqtdan unumli foydalanishga va bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lgan til o'rganishga undaydi.

Shuningdek, maqolada Mukarrama Murodova maktublarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ularda ilgari surilgan ma'rifiy, axloqiy va tarbiyaviy qarashlar tizimli ravishda tahlil etiladi. Shoiraning epistolyar merosida inson kamoloti, ma'naviy poklik, ota-ona va farzand munosabatlari, ustoz-shogird an'analari kabi masalalar didaktik ruhda, ammo badiiylilik mezonlari asosida ifodalangani ko'rsatib beriladi. Maktublarda samimiy ohang, hayotiy misollar, obrazli tasvir va ta'sirchan murojaat shakllari orqali tarbiyaviy g'oyalar o'quvchi ongiga yetkaziladi.

Kirish. Epistolyar janr adabiy jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi davrlardan bashariyat tamadduni tarixida maktub yozish jarayoni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda shaxsiy-maishiy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo'lsa-da, davrlar o'tishi bilan u asta-sekin badiiy adabiyotning mustaqil janriga aylana bordi. Ilk davrlarda maktublar faqatgina xabar almashishga xizmat qilib, insonlar o'rtasidagi asosiy kommunikatsiya vositasi hisoblangan. Insoniyat ma'naviy jihatdan taraqqiy etgani sari u nafaqat aloqa vositasi, balki ijodiy-estetik ifoda shakli sifatida ham o'z ahamiyatini topdi. Shu jihatdan maktublar badiiy adabiyotdagi adabiy-estetik hodisa sifatida keng ko'lamdagi tadqiqotlarni talab qiladi.

Maktub yozish qadimdan mavjud bo'lgan yozma madaniyat shakllaridan biri bo'lib, Sharq va G'arb adabiyoti tarixida turli ijtimoiy-siyosiy shaxslar, faylasuflar, shoirlar va yozuvchilar ijodining tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Masalan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur maktublari faqat shaxsiy yozishma emas, balki davrning siyosiy, ma'naviy hamda adabiy hayotini o'zida aks ettirgan badiiy manbalar sifatida qadrlanadi. Maktub janri shaxsiy tuyg'ular, ichki kechinmalar, zamon ruhini bevosita ifoda qilish imkoniyatini bergani uchun ham badiiy adabiyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy adabiyotimiz tarixiga nazar solar ekanmiz, maktublar ko'rinishida badiiy asarlar yaratish xorij adabiyotidan avvalroq taraqqiy etganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, XIV asrning oxiri – XV asr boshlari o'zbek adabiyotida maktub usulida badiiy asar yaratishning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Sharq adabiyotida maktublar va maktublar ko'rinishidagi asarlar yaratish an'anasi fors adabiyotiga borib taqaladi va o'zbek adabiyotiga bu shakldagi asarlar fors adabiyotidan kirib kelgan. Buni adabiyotshunos O.Bozorovning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "O'rni kelganda aytib o'tish lozimki, fors-tojik adabiyotida, uning ta'sirida turkiy adabiyotda epistolyar asarlar alohida janr namunasi – noma shaklida Yevropa adabiyotidan oldin paydo bo'ldi" [1.B.28]. Maktublarda hamda maktublardan tashkil topgan badiiy asarlarda davrning ijtimoiy muammolari, siyosiy jarayonlarning nozik xususiyatlari, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, do'stlik rishtalari, pand-nasihat hamda o'g'itlar singari mavzular yoritilgan.

Davrlar o'tishi bilan xatlarning faqatgina aloqa vositasi emas, balki adabiyotdagi badiiy-estetik qarashlarning ifoda shakliga aylanganligi xususida yuqorida so'z yuritgan edik. Mumtoz Sharq adabiyotida noma janrining vujudga kelishi, xalq dostonlarida maktub motiviga ko'p o'rinlarda murojaat qilinishi, badiiy asarlarda xatlardan keng istifoda etilishi fikrimizning dalilidir. Xususan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod va Shirinning xat almashuvi, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar va Doroning xatlari, "Alpomish", "Kuntug'mish" singari xalq dostonlarida xat motivining ishlatilishi maktublarning badiiy adabiyotda alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Noma janri shakllanganidan so'ng esa, butun asarning xat shaklida yozilishi maktublarning adabiy ahamiyatini yanada o'ttirdi. Yusuf Amiriyning "Dahnoma", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Said Ahmadning "Taashshuqnama", Fahriddin Gurgoniyning "Dahnoma", Xoja Imomiddin Faqih Kirmoniyning "Muhabbatnomai sohbidilon",

Xo'jandiyning "Latofatnoma", Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" singari asarlari noma janrining nodir namunalari hisoblanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, maktublar ijodkor uslubi va dunyoqarashini inikos ettiruvchi muhim manbadir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos O.Bozorov o'zining "Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi" [1.B.28] nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasida badiiy adabiyotdagi maktublarning ahamiyati haqida fikr yuritir ekan, "Hukmdorlar o'rtasidagi siyosiy yoki diplomatik maktublar butun-butun xalqlar, davlatlar hayotida muayyan rol o'ynagan. San'at va madaniyat vakillari o'rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar o'rta tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa odamlar o'rtasidagi do'stlik, mehr oqibat, sadoqat in'ikosidir. Hayotda uchraydigan ana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kirilgan" [1.B.28] degan xulosani beradi. Yuqorida keltirilgan fikrdan shuni tushunish mumkinki, maktublar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va shaxsiy masalalarga obektiv munosabat bildirish vositasi sifatida adabiyotshunoslik uchun muhim manbadir.

Badiiy adabiyotdagi maktublar adresat va adresant munosabatiga ko'ra bir nechta turlarga ajratiladi. Q.Dusmuratov "O'zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyoti" nomli maqolasida maktublarning quyidagi turlarini ko'rsatadi:

1. Hukmdorlar o'rtasidagi maktublar.
2. Ijodkorlar, san'at va madaniyat arboblari o'rtasidagi maktublar.
3. Shaxsiy maktublar [2.B.58].

Hukmdorlar o'rtasidagi maktublarda mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy munosabatlari va diplomatik aloqalar haqidagi ma'lumotlar almashilsa, ijodkorlar, san'at va madaniyat arboblari o'rtasidagi maktublarda fan va madaniyat yangiliklari, falsafiy masalalar, biror badiiy asarga munosabat singari mavzular to'g'risida yoziladi. Maktublarning bu turini ham o'z ichida bir qancha guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan,

- Ijodkor va ijodkor o'rtasidagi maktublar;
- Ijodkor va kitobxon o'rtasidagi maktublar.

Ijodkor va ijodkor o'rtasidagi maktublarda badiiy ijod jarayonining nozik masalalari, badiiy ijod vakillarining dunyoqarashi hamda ularni o'ylantirgan masalalar muhokama mavzusiga aylansa, ijodkor va kitobxon o'rtasidagi maktublarda badiiy asarning kitobxonni qiziqitirgan o'rinlari, kitobxon uchun sevimli bo'lgan obrazlar taqdirining tahlili kabi mavzular xususida so'z boradi.

Mukarrama Murodova ijodida ham maktublar alohida ahamiyat kasb etadi. Shoira maktublari asosan shaxsiy xarakterga ega bo'lib, uning maktublarida ijodkor, ona, rafiq, obrazlari bor bo'y basti bilan namoyon bo'ladi. Shoiraning turmush o'trog'i Mirza Karimga, farzandlari Muzaffar, Muharrama va Munavvaralarga, Qo'qonning ma'rifatparvar malikasi, shoira Mohlaroying yozgan maktublari badiiy mukammalligi, axloqiy-didaktik xarakterga ega ekanligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Xatlarni yozar ekan, shoira o'zini butkul erkin his qiladi, qalb qozonida qaynagan nekin tuyg'ularni g'oyatda noziklik

bilan ifodalaydi. U maktublarida faqatgina axborot berish bilan cheklanmaydi. Aksincha, ma'lumot berish asnosida ikkinchi tomonga o'z qarashlarini singdirishga urinadi, falsafiy mushohada qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot epistolyar janrning nazariy asoslari hamda Mukarrama Murodova maktublarida didaktik g'oyalarning badiiy ifodalanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuv va metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, tarixiy-adabiy yondashuv asosida epistolyar janrning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va adabiy jarayondagi o'rni tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali maktub janrining milliy va jahon adabiyotidagi an'analari hamda uning badiiy-estetik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-tipologik metod yordamida Mukarrama Murodova maktublaridagi didaktik motivlar boshqa epistolyar namunalar bilan taqqoslandi va ularning o'xshash hamda farqli jihatlari ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent-tahlil usulidan foydalanilib, maktublarda takrorlanuvchi tarbiyaviy g'oyalar (vatanparvarlik, ilmga intilish, vaqt qadri, til o'rganish masalalari va boshqalar) tizimlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini adabiyotshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari, epistolyar janr nazariyasi hamda didaktik adabiyotga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Mazkur metodlar majmuasi Mukarrama Murodova epistolyar merosida didaktik masalalarning badiiy talqinini kompleks va tizimli o'rganish imkonini berdi.

Natijalar. Mukarrama Murodova epistolyar merosini o'rganishda tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik tahlili, germeenvtik yondashuv, struktur-semantik tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Epistolyar janrning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlarini tarixiy-qiyosiy metodi, shoira maktublarining mazmun va badiiy xususiyatlarini o'chishda matnshunoslik metodi, maktublardagi ramziy va majosiy qatlamni talqin etishda germeenvtik yondashuv, didaktik g'oyalarning badiiy ifoda vositalari orqali berilishini struktur-semantik tahlil metodlari orqali o'rganildi. Tahlil materiali sifatida shoiraning turmush o'rtog'i va farzandlariga yo'llagan maktublari asos sifatida olindi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning asosiy funksiyalarida bir bu – didaktik funksiyasi hisoblanadi. Ya'ni badiiy adabiyot insonni tarbiyalovchi, uning dunyoqarashiga, g'oyalarga o'z ta'sirini ko'rsata oladigan beqiyos kuchdir. Mukarrama Murodova maktublarida badiiy adabiyotning ana shu ustuvor vazifasidan ustalik bilan foydalanadi. Safarda bo'lsa ham farzandlariga turli masalalar yuzasidan saboq berishga ularni dunyoning yangi ufoqlari bilan tanishtirishga harakat qiladi. Buni shoiraning kenja qizi Munavvara Pirmatova "Ota-onamning bir-birlariga yozgan maktublari yirik bir asar edi, go'yo. Ular safarda bo'lsalarda, farzandlarga hayot saboqlarini berib borar edilar" [3] deya xotirlagan edi. Shoiraning o'g'li Muzaffarga yozgan maktubini ham mehribon va oqila onaning farzandiga saboqlari sifatida baholash mumkin:

"Salom, mening yo'lbars o'g'lonim! Mana bundan 2 soat oldin Suxumi shahrini aylanib keldik. Endi ularni Sizlar ham ko'rishingiz kerak. Ko'z bilan ko'rgunlarincha, men ular haqida gapirib beraman" [3]. O'zi yegan narsani farzandiga ilinib onalar psixologiyasiga xos xususiyat ekanligi singari ko'rgan narsalarini farzandlari ko'rishini istash ham onalarga xos xususiyatdir. Suxumi shahrining manzaralaridan bahra olgan shoira bu go'zalliklardan o'g'lining ham bahramand bo'lishini xohlaydi va tabiat go'zalliklarini farzandiga so'z bilan chizib berishga harakat qiladi: "Tog' oshib Suxumi shahriga kirib bordik, u judayam chiroyli shahar bo'lib, Abxaziya avtonom Respublikasining poytaxti ekan. Hamma yoqda yam-yashil lavr daraxtlari, fikuslar, baland-baland palmalar! Hammasidan chiroylisi: bu yerda gul-daraxt ko'p ekan. Alyanda nomli gul-daraxtning chiroyli pushti gullari to'p-to'p ochilib, shaharni yanayam yashnatib yuboribdi. Ko'zim yonib, uyda o'stiramiz deb bir shoxini gullari bilan sindirib olgandim uni ko'rib turgan rasmchi chol chaqirdi-da: nega sindirding, darhol tashlab yubor, bo'lmasa u zaharlaydi, dedi. Guli ham zaharli emish. Xullas gulni iring'itib, qo'limni o'sha atrofda suvda tozalab yuvmagunimcha qo'ymadi. Demoqchimanki, o'g'lim, dunyoda daraxtga aylanib ketgan gullar ham bo'larkan va u kishini zaharlashga qodir ekan! Bu gapning mag'zini chaqing, Muzaffarjon!" [3].

"Uyda o'stirish uchun gul shoxini sindirib olish"idan shoiraning go'zallikka tashnligi, xorijdagi nabototning go'zalligi bilan farzandlarini tanishtirishga ishtiyoqmandligi seziladi. Shoira Abxaziya o'suvchi alyanda gulining daraxt singari bahaybatligi, uning gullari zaharli ekanligini aytish orqali o'g'liga ma'lumot berish bilan birga dunyodagi soxta go'zalliklarga aldanmaslikni, tashqaridan chiroyli ko'ringan hamma narsa ham inson uchun foydali emasligini, bunday saroblarga aldanish inson umrini zaharlashini uqtirishga harakat qiladi. Maktub yakunidagi alohida "bu gaplarning mag'zini chaqing!" ta'kid

onaning nasihatlarini naqadar muhim ekanligiga, keltirilgan voqea majoziy ma'noda bo'lib, "kosa tagida nim kosa" borligiga ishora qiladi.

Mukarrama Murodovaning epistolyar merosi matnshunoslik va semantik tahlil asosida o'rganilganda, uning maktublarida didkatik ruh yetakchi o'rinda namoyon bo'ladi va u badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi.

Mukarrama Murodovaning farzandlariga yozilgan maktublarini o'qir ekanmiz, uning farzandlari bilan misoli yuzma-yuz suhbat qurayotganini ko'ramiz. U o'g'il-qizlariga yetkazmoqchi bo'lgan gaplarining barchasida tabiatning ma'lim bir detalini misol qilib keltiradi, so'zlarining qatiga mazmun yashirishga harakat qiladi. 1986-yil 27-sentyabrda kenja qiziga yozgan maktubida unga Iveri cho'qqisi haqida hikoya qiladi. Yana bir jihati e'tiborni tortadiki, maktub yozilgan yilda Munavvara Pirmatova 10-11 yoshlardagi qizaloq bo'lgan. Bu yoshdagi qizchaga ham shoira xuddi katta odamga gapirgandek jiddiy mavzulardan bahs yuritadi. Ko'rinadiki, u farzandlarini juda yosh vaqtlardan katta hayotga tayyorlab boradi. Tabiat tasvirini didaktik masalalar bilan omuxtalashtirib yetkazadi. Bu ham shoiraning farzandlarga tarbiya berishdagi o'ziga xos usulidir. "Qarang, Munavvarxon, Iveri cho'qqisi shuncha baland, ulug'vor bo'lgani bilan, unga odamlar talpingani, yetishishni orzu qilgani bilan, ichi bo'm-bo'sh puchlik ekan. Rangsiz bo'shliq, nomsiz bo'shliq, jonsiz bo'shliq... Ha, qizim, shunday o'sib qolmaslik uchun har kuni bir tomchidan bo'lsada, ilm sharbatidan ichish kerak! Har kuni tariqdek bo'lsa-da, aqlda, yurakda nimadir yaratish kerak! Mening dono farzandlarim mag'zi to'q cho'qqilar bo'lishini istayman. 27-sentyabr, 1986-yil, Pisunda" [3].

Muhokama. Shoira uchun ilmsizlikdan, bo'sh tafakkurdan ko'ra yomonroq narsa yo'q. Kundalik hayotimizda uchratadigan "tashi yaltiroq, ichi qaltiroq" kimsalar, o'zini allomayi zamon deb bilgani holda ilm chashmasidan bir qultum ichmagan kishilar aslida jamiyatning taraqqiyotiga g'ov bo'ladigan, tamaddun g'ildiragini orqaga yurishiga sabab bo'ladigan odamlardir. Ayniqsa, Sobiq Sovet tuzumining 60-80-yillarida avj olgan mafkuraparastlik davrlarida yuqori qatlamning madhini qoyillatish bilan yuqori mansab lavozimiga o'tirgan, tirikchilik ko'yida ilm olmay o'zini moddiyatga urgan insonlar juda ko'pchilikni tashkil etar edi. Bunday holatlar, albatta, Mukarrama Murodova singari hassos qalb sohiblarini ranjitgan. Shuning uchun ham u qiziga yozgan maktubida Iveri cho'qqisi misolida puchlikning naqadar yomon illat ekanligini tushuntiradi. Bu illatni tag tomiri bilan yo'qotish uchun esa ilmning zarurligi, insondagi yaratuvchanlikning muhimligini ta'kidlaydi. Chindan ham ilm sohibi bo'lgan, o'rganishdan, izlanishdan charchamagan, boshqalarga yaxshilik sog'inuvchi hamda ijodkor insondan yomonlik chiqmaydi. Shu jihatdan, shoiraning maktubini nafaqat qiziga, balki butun kelajak avlodga aytilgan xitob sifatida baholash mumkin. Maktub yakunidagi onaning orzu-umidlari, inonchlarini kishini larzaga keltiradi. Farzandlarining qoyadek yuksak bo'lishi bilan birga "mag'zi to'q cho'qqi" bo'lishini istashi uning nechog'li ma'rifatparvar ayol ekanligidan darak beradi.

Mukarrama Murodova epistolyar merosida didaktika badiiyligi bilan uyg'unlashadi. Nasihat ohangi sun'iy yoki zo'rma-zo'raki emas, balki ichki kechinma va hayotiy tajriba bilan mustahkamlangan. Shoiraning xorij safarida yozgan maktublarida vatan sog'inchi alohida o'rin tutadi. Vatandosh bilan uchrashuv sahnalari orqali milliy o'zbek hissi kuchli ifodalanadi.

Azaldan xalq orasida til bilgan kishi qadrlanadi. "Bir til bilgan odam bitta odam, ikki til bilgan odam ikkita odam" degan dono xalqimiz. Tariximizning barcha davrlarida ham millatning oldingi qatorida turgan insonlar, ma'rifatparvarlar xalqni til o'rganishga da'vat etganlar. Misol uchun Xorazmning otashqalb shoiri Avaz O'tar til o'rganish haqida gapirar ekan, shunday degan edi:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,

Til vositai robitali olamiyondur.

G'ayri tilini sa'y qiling bilgani, yoshlar,

Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tildek,

Bilmakka oni g'ayrat eting fonda kondur [4].

Avaz O'tar ta'kidlagan masalaning dolzarbligi XX asr boshlaridagi jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan Turkiston jadidlarining otasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida "Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahih Buxoriy, juz 4, sahifa 156)" [3] degan so'zlari orqali shaxs rivojlanishi va millat taraqqiyotida til o'rganishning ahamiyati yuqori ekanligi haqida fikrlarini bayon

qilgan edi. Bu masalani Mukarrama Murodova o'g'liga yozgan maktubida yana bir bor qalamga oladi. "...Chindan ham mana shunday o'g'lim! Biz ona tilimiz yonida chet tiliga ham mehr qo'yib, uni chuqur o'rganmasak bo'lmaydi. Bu ehtiyoj ayniqsa, mana shunaqa katta davralarda bilinar ekan. Men o'zimni rus tilidan juda no'noqman deb yurardim. Yo'q, hamma bilan, har qanday mavzuda bimalol suhbatlashyapman. Shunda mening farzandlarim bu borada mendan ham yaxshiroq bilimdon, 3-4 xil tillarda bimalol gaplashadigan bo'lib yetishishlarini orzu qilib quvonib ketyapman!" [5]. Shoir farzandlarining xorijiy tillarni mukammal o'rganishga da'vat etadi hamda ularning chet tillarini yaxshi bilishini o'ylashning o'zi unga cheksiz quvonch baxsh etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shoiraning epistolyar merosida didaktik masalalar markaziy o'rin egallaydi. Shoir maktublari orqali

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorov O. Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi ("Yosh Verterning iztiroblari" hamda "Bonu" romanlari misolida) filol.fan. bo'yicha fals. dri diss. (PhD). Qarshi, 2022, 28-b.
2. Dusmuratov Q. O'zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyoti. Tamaddun nuri, 2024-yil, 7-son (58).

farzandlari va yosh avlodni ilmga, tafakkurga chuqurligiga, vatanparvarlikka hamda ma'naviy poklikka da'vat etadi. Ammo maktublarda pand-nasihat ohangi mavhum nasihatbozlikka aylanmaydi, aksincha, hayotiy kuzatuvlar, shaxsiy kechinmalar va real ijtimoiy jarayonlar bilan mustahkam bog'lanadi. Shu tariqa Murodova didaktikasida badiiylik bilan ma'rifiylik o'zaro uyg'unlik kasb etadi.

Maktub yozilganidan yillar o'tgach, shoiraning orzulari amalga oshdi. Uning farzandlari jahonning ko'plab tillarida bimalol gaplasha oladigan insonlar bo'lib yetishdi. Shoiraning to'ng'ich qizi Muharrama Pirmatova arab, fors, rus va ingliz tillarini o'rgangan bo'lsa, kichik qizi Munavvara Pirmatova arab tili bo'yicha Andijon viloyatidagi eng yaxshi mutaxassislardan biri sanaladi. Bu avvalo, oiladagi ota-ona tarbiyasi bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan shoiraning Pisundadagi niyatlarining ijobatidir.

3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html>

4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-ikki-emas-to-rt-til-kerak-1913>

5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html>